

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMI

**ADJECTIVE WORD GROUP IN MODERN UZBEK LITERARY
LANGUAGE**

**ГРУППА ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В СОВРЕМЕННОМ
УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ**

Asqaraliyeva Durdonaxon

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va
adabiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotation. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar va morfologiya bo'limidagi so'z turkumlaridan biri sifat so'z turkumi haqida so'z boradi.

Annotation. This article talks about reforms in the field of education in the Republic of Uzbekistan and one of the word groups in the morphology department is the adjective word group.

Аннотация. В данной статье рассказывается о реформах в сфере образования в Республике Узбекистан и одной из групп слов на кафедре морфологии является группа прилагательных.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, intellektual, kreativ, pedagog, ta'lim, o'zbek tili, belgi, sifat.

Key words: Uzbekistan, intellectual, creative, pedagogue, education, Uzbek language, sign, quality.

Ключевые слова: Узбекистан, интеллектуальный, творческий, педагог, образование, узбекский язык, знак, качество.

O’zbekiston Respublikasida yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirish, yoshlar uchun zarur shart-sharoit yaratishga e’tibor yanada oshirilmoqda. Yurtimizning kelgusidagi jadal taraqqiyoti kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarning ma’naviy yetukligiga bog‘liq. Yosh iqtidor egalarini aniqlash, qobiliyatli yoshlarni tanlash va o‘qitish, intellektual imkoniyatini namoyon etishga yordam beruvchi ko‘p sohali ta’lim muhitini yaratuvchi prezident maktablari tashkil etildi. Prezident maktablarida o‘quvchilar intellektual salohiyati va kreativ fikrlashiga ko‘ra qabul qilingani, o‘quv-tarbiya jarayoni to‘g‘ri tashkil etilgani, eng yaxshi pedagog xodimlar, shu qatorda yuqori malakali xorijiy mutaxassislar jalb etilib, mehnatiga munosib haq to‘lanayotgani qisqa vaqtda o‘z samarasini ko‘rsata boshladi. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek. Ko’rib, bilib turibsizki, jahonning rivojlangan davlatlarida ta’limni yuksaltirish birinchi o‘rindagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Chunki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan uzviy bog‘liqdir. “Nima uchun men prezident maktablari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga harakat qilyapman? Chunki vaqt kelib iqtidorli o‘g‘il-qizlarim orasidan jadid bobolarimizga munosib avlod yetishib chiqishiga ishonaman. Umidli yoshlarni tarbiyalash, avaylab asrash o‘z qo‘limizda. Shunday ekan bolalarimiz ilm olishi uchun hech narsani ayamaymiz!” Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning yuqorida keltirgan nutqi O’zbekiston Respublikasida ta’lim sohasiga berilayotgan e’tiborning yaqqol dalilidir. Ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan ta’lim tog’risidagi qonunning ayrim moddalarini ko’rib chiqamiz.

18-modda. Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish. Davlat oilada ta’lim olishga va mustaqil ta’lim olishga ko‘maklashadi. Bolalarning oilada ta’lim olishi va mustaqil ta’lim olish uslubiy va maslahat yordami ko‘rsatilgan holda tegishli o‘quv dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish tartibi, shuningdek ta’lim oluvchilarning toifalari ta’lim sohasidagi vakolatli

davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi. Oilada ta’lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta’lim muassasasi hamda ta’lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o‘rtasidagi shartnomaga asosida amalga oshiriladi. Mustaqil ta’lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma’naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi. Oilada ta’lim olgan va mustaqil ta’lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatni berish davlat ta’lim muassasalarining tasdiqlangan o‘quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi i ushbu moddadan kelib chiqib hulosa qilishimiz mumkinki har bir ilm oluvchi faqat ta’lim muassasasida emas balki mustaqil ta’lim sifatida uylarida ham shug‘ullanishlari kerak. 33-modda. Ta’lim berish tili. Ta’lim tash kilotlarida o‘qitish tilidan foydalanish tartibi “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga soninadiii . Albatta har bir davlat o‘z davlat tiliga ega va o’sha davlat tilida so’zlashadi har qanday hujjatlari ham o’sha tilda bo’ladi. Bundan chiqdi ta’limda ham o’sha davlat tilidan foydalaniadi .O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. Biz hozir sizlar bilan o‘zbek tilining morfologiya bo’limidagi sifat so’z turkumini ko’rib chiqamiz. Sifat so’z turkumini ko’rib chiqishdan oldin “sifat” so’zining o’zini o’rganib chiqamiz. Sifat — obyektning muhim belgilarini ifodalaydigan falsafiy tushuncha. Sifat obyekt tarkibiy qismlarining o‘zaro turg‘un munosabatlarini ko’rsatadi, ushbu munosabatlar bir obyektni ikkinchi obyektdan ajratib turadigan o‘ziga xos tomonlarini bildiradi. Shu bilan birga sifat bir turdagiligi obyektlarga xos umumiyligini ham ifodalaydi. Sifat tushunchasini birinchi bo’lib Aristotel taxlil qilgan. U sifatni narsalarga nisbatan aksidensiya deb ta’riflaydi. Ibn Sino bo‘lsa sifatni narsalarning ajralmas xususiyati, o‘z-o‘zicha mavjud emas deb hisoblaydi. Yangi davr falsafasida birlamchi va ikkilamchi sifatlar tushunchasi shakllangan. Gegel sifatga borliq bilan bo‘lgan muayyanlik deb ta’rif bergan. Uning fikricha, sifat yo‘qolishi bilan predmetning o‘zi ham yo‘qoladi. Obyektiv olamdagagi narsalar o‘zgarishda va rivojlanishda bo‘lishi bilan birga, ular nisbatan barqaror yaxlitlikka ega bo‘lib, muayyan buyum yoki narsa ko‘rinishi

(sifat)da namoyon bo‘ladi. Biron narsaning aynan shu narsa ekanligini ko‘rsatuvchi jihatni uning sifatidir. Sifat predmetning ichki mohiyatini, ichki va tashqi aloqadorliklari birligini ifodalaydi. Sifat predmetning miqdor xususiyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Sifatning o‘zgarishi muayyan obyektning boshqa obyektga aylanganligini bildiradi. Hulosa qilib aytganda sifat shaxs va narsaning belgisini bildiradi. Belgi deganda siz nimani tushunasiz? Belgi so‘zi keng tushunchali u narsaning rang-tus, hajm, shakl ko‘rinish, xususiyati va shu kabilarga ko‘ra bildiradi: qizil, keng, yoqimli va boshqa Shu xususiyatlariga ko‘ra, sifatlar ma’nosiga qarab bir necha turga bo‘linadi: rang-tus bildiruvchi sifatlar — oq, sariq, qizil, nimrang kabi; mazata’m bildiruvchi sifatlar — shirin, nordon, achchiq, bemaza kabi; xususiyat bildiruvchi sifatlar — mehribon, sodda, mug‘ambir, yuvosh kabi; shaklko‘rinish bildiruvchi sifatlar — gavdali, novcha, uzunchoq, yassi kabi; hajmo‘lchov bildiruvchi sifatlar — keng, tor, katta, og‘ir, yengil. Sifat asosan otga bog‘lanadi va uning belgisini aniqlaydi. Misol uchun: ,qizil qalam, oq kabutar, siniq payola, kuzgi ekin, aqli qiz, yumshoq non, . Bunda belgi bildiruvchi so‘z sifatlovchi, uni boshqarib kelgan ot esa sifatlanmish deyiladi. Sifat so‘z turkumida bo‘lgan so‘zlar gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi ,kesim va ba‘zan hol vazifasida ham keladi. Misollar bilan ko‘rib chiqamiz ; Sifatlovchi-aniqlovchi; Birozdan so‘ng yoqimli shamol esa boshladi. Kesim;Osmon tiniq. Hol;U do’stining yuragida kechayotgan tuyg’ularni yaxshi tushunardi. Sifatlar ma’no jihatdan bir-biridan farqlanadi shunga ko‘ra asliy va nisbiy sifatga ajratish mumkin. Narsaning belgisini bevosita ifodalaydigan, belgini darajalab ko‘rsata oladigan sifat asliy sifat deyiladi. Misol: yaxshi, katta, uzun, qisqa, oq, qora, semiz, kamtar kabi tub so‘zlar asliy sifatlardir. Narsa belgisini o‘rin yoki paytga nisbatlash, boshqa narsaga o‘xshatish, chog‘ishtirish kabi ma’nolar vositasida ifodalaydigan sifat nisbiy sifat deyiladi. nisbiy sifatlar affikslar orqali yasalgan sifatlardan tashkil topadi. Ular ma’no jihatdan a) belgini biror narsaga nisbat berish bilan ifodalaydi: g‘ayratli yigit, chiroyli surat, devoriy gazeta, ko‘rpak mato; b) belgini o‘rin va paytga nisbatlaydi: toshkentlik kishi, yerdag'i olma, kuzgi shamol; d) belgini narsaning xususiyat, holatga nisbatlaydi:

Modern education and development

ko'ngilchan odam,chopqir ot, tirishqoq talaba. Sifatlarda modal shakllar Sifatlarda darajalardan tashqari belgining ortiq yoki kamlik ma'nolar ham ifodalanadi. Bu hilda belgi ifodalanishida muayyan belgi boshqa predmet belgisiga qiyoslanmaydi.Bunday shakllar sifatlarning modal shakllari deyiladi . Sifatning modal shakllariga quyidagilar kiradi. A)belgining kuchaytiruv shakli B)belgining kamlik shakli D)belgining noaniqlik shakli E)belgining kamlik shakliiii Sifat so'z turkumi haqida qancha o'rgansak shuncha oz sifat so'z turkumi tuzilishiga ko'ra 4 turga bo'linadi Sodda sifatlar: tinch, shirin,oilaviy.

Qo'shma sifatlar: bodomqovoq,erksevar,kulrang. Juft sifatlar: baland-past, boy-badavlat, eski-tuski. Takroriy sifatlar: shirin-shirin,katta-katta,baland-baland.

Sifat so'z turkumi haqida hulosa qilib shuni aytishim mumkinki, sifat mustaqil so'z turkumiga kirib, shaxs va predmetlarning belgisini bildiradi.Sifat so'z turkumidagi so'zlarni nutqimizda qanchalik to'g'ri qo'llasak , nutqimiz shunchalik jozibali bo'ladi. Yana shuni takidlash joizki , bugungi kunda o'qituvchilar o'quvchilarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy yondasha olishi kerak.

Yuqori sinflarda ona tili darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish ,dars o'tishda yangi metodikalarni qo'llashi davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi.Zero, shaxsning kamol topishi,qadriyatlarini anglashida ona tili darslarining o'rni beqiyosdir.Bundan chiqdi har bir o'qituvchi o'z darsini olib borar ekan shu maqsadlarni yodda saqlashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.Rahimov, B.Umurqulov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent_2003
2. G'afforova T Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.

3. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta'lif texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2009.
5. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.
6. M.A.Arabboyeva Ona tili darslari orqali o’quvchilarning ijtimoiy emotsiional – fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. Замонавий таълим / современное образование, 2022, 12-сон.
7. Arabboyeva M. Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzARB pedagogik muammo sifatida. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_7-son.
8. D.Sayfutdinova. “Boshlang’ich sinflarda sifat so’z turkumini o’qi i O’RQ-637-son 23.09.2020 yildagi O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI TO’G’RISIDA“ <https://lex.uz/docs/-5013007> ii O’RQ-637-son 23.09.2020 yildagi O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI TO’G’RISIDA”<https://lex.uz/docs/-5013007> iii S.RAHIMOV.B.UMURQULOV “HOZIRGI O’ZBEK ADABIY TILI” DARSLIK)